



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “8” may

BUYRUQ № 88

Toshkent sh.

**“Keng qamrovli iqtisodiy toifalar bo‘yicha tovarlarning
statistik nomenklaturasi”ni tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, statistika sohasida keng qamrovli iqtisodiy toifalar bo‘yicha tovarlarning statistik nomenklaturasini yanada takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Keng qamrovli iqtisodiy toifalar bo‘yicha tovarlarning statistik nomenklaturasi” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2020- yil 31- martdagi “Keng qamrovli iqtisodiy toifalar bo‘yicha tovarlarning statistik nomenklaturasini tasdiqlash va amaliyotga joriy etish haqida” 7- son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov